

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI RIVOJLANTIRISH VA ISTIQBOLLARI

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

O‘zMPU Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari

bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ismatova Oyniso Hikmat qizi

O‘zMPU ”Musıqa ta’limi va san’at”

yo‘nalishi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida o‘zbek milliy musiqa san’atini rivojlantirish, xususan, o‘zbek xalq cholg‘ularini targ‘ib qilish, asrab-avaylash hamda mizrobli cholg‘ularini o‘rni beqiyos bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotda milliy cholg‘u asboblarining tarixiy ildizlari, ularning madaniy meros sifatidagi ahamiyati hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan madaniyat va san’at sohasiga berilayotgan e’tibor, cholg‘u ijrochiligi maktablarini rivojlantirish, ta’lim tizimida milliy cholg‘ularni o‘qitishni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining kelajak istiqbollari, ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda milliy musiqa madaniyatini boyitishdagi roli haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, o‘zbek xalq cholg‘ulari, mizrobli cholg‘ular, milliy musiqa madaniyati, musiqa ta’limi, milliy meros, san’at va madaniyat, cholg‘u ijrochiligi, madaniy rivojlanish, milliy qadriyatlar.

РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ УЗБЕКИСТАНА В РАМКАХ НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие узбекского национального музыкального искусства, в частности, популяризация, сохранение и защита узбекских народных инструментов, а также роль инструментов мизробли в рамках новой стратегии развития Узбекистана. В исследовании анализируются исторические корни национальных музыкальных инструментов, их значение как культурного наследия и их роль в воспитании молодого поколения в духе национальных ценностей. Также рассматривается внимание, уделяемое государством сфере культуры и искусства, развитие школ музыкального исполнительства и совершенствование преподавания национальных инструментов в системе образования. В статье представлены

научные выводы о перспективах развития узбекских народных инструментов, их популяризации на международном уровне и их роли в обогащении национальной музыкальной культуры.

Ключевые слова: Новая стратегия развития Узбекистана, узбекские народные инструменты, инструменты мизробли, национальная музыкальная культура, музыкальное образование, национальное наследие, искусство и культура, музыкальное исполнительство, культурное развитие, национальные ценности.

DEVELOPMENT AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S FOLK INSTRUMENTS IN THE NEW DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN

Abstract: This article discusses the development of Uzbek national musical art, in particular, the promotion, preservation and preservation of Uzbek folk instruments, as well as the role of mizrobli instruments, within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy. The study analyzes the historical roots of national musical instruments, their significance as a cultural heritage, and their role in educating the younger generation in the spirit of national values. It also examines the attention paid by the state to the sphere of culture and art, the development of musical performance schools, and the improvement of teaching national instruments in the education system. The article presents scientific conclusions on the future prospects of Uzbek folk instruments, their promotion on an international scale, and their role in enriching national musical culture.

Keywords: New Uzbekistan Development Strategy, Uzbek folk instruments, mizrob instruments, national musical culture, music education, national heritage, art and culture, musical performance, cultural development, national values.

Yangi O‘zbekiston bu mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, bunyodkorlik va farovonlik, erkinlik va ozodlikning yangi davri, yoshlarni qo‘llab quvvatlash yo‘lining yuqori bosqichidir. Ya’ni, Yangi O‘zbekiston - «o‘zgarib, kuch-qudratga to‘lib borayotgan, dunyo ahli e’tirof etayotgan yangilangan jamiyat, dunyoga yuz tutayotgan erkin va farovon bir o‘lkadir».

Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 7 ta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Har bir ustuvor bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shulardan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida san’at va madaniyatni rivojlantirish masalalari 5-ustuvor yo‘nalishda – “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” qismida bayon qilingan. Ushbu yo‘nalishda bir nechta muhim maqsadlar belgilangan:

Asosiy maqsadlar:

75-maqsad – Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish.

76-maqsad – Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini rivojlantirish, teatr, muzey, madaniyat markazlari hamda ijodiy tashkilotlar faoliyatini kengaytirish.

77-maqsad – Milliy madaniy merosni asrash, xalq og'zaki ijodi, milliy musiqa va an'anaviy san'at turlarini rivojlantirish hamda ularni yoshlar orasida keng targ'ib qilish.

Darhaqiqat, bugungi kunda Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Strategiyaning ma'naviy taraqqiyotga bag'ishlangan yo'nalishida milliy musiqa merosini asrab-avaylash, an'anaviy ijrochilik maktablarini rivojlantirish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan o'zbek xalq cholg'ularini o'rganish, ularni ta'lim tizimida keng qo'llash va ijrochilik an'analarini davom ettirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy cholg'u asboblari o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatini ifodalovchi muhim vosita bo'lib, ularni rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida o'zbek xalq cholg'ulari shuningdek, mizrob cholg'ular alohida o'rin egallaydi. Qashqar rubob, prima rubob, afg'on rubob kabi mizrobli cholg'ular asrlar davomida xalqimizning badiiy didi, ruhiyati va milliy qadriyatlarini ifodalab kelgan. Bu cholg'ularning tarixiy ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Sharq musiqiy madaniyatida mizrobli cholg'ular saroy va xalq ijrochiligida keng qo'llanilgan bo'lib, ular orqali maqom, ashula va turli cholg'u kuylar ijro etilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, mizrobli cholg'ular Markaziy Osiyo hududida shakllanib, keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan. Afg'on va qashqar rubob cholg'ulari Sharq xalqlari musiqa madaniyatining qadimiy namunalaridan bo'lib, ularning tarixi Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarning madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu cholg'ular o'zining nafis tovushi, murakkab ijro usullari va boy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, maqom san'atida mizrobli cholg'ular yetakchi o'rin tutib, musiqa merosining asrlar davomida saqlanib qolishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy madaniyat va san'atni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Strategiyada milliy merosni asrab-avaylash, yosh avlodni milliy san'atga qiziqtirish hamda musiqa ijrochiligini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilangan. Bu jarayonda mizrobli cholg'ularni o'rganish, ularni ta'lim tizimida keng joriy etish va ijrochilik maktablarini

rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa maktablari, san'at maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'ularni o'qitish, yosh ijrochilarni tayyorlash orqali qadimiy musiqa an'analari davom ettirilmoqda. Bu esa nafaqat milliy musiqa merosini saqlash, balki uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz tomonidan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Besh Tashabbus" loyihasini amalga oshirdilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir o'quvchining biror cholg'u ijrochiligini o'rganishi tashabbusi ilgari surildi. Bu tashabbus zamirida musiqa ta'limini yangicha asoslarga binoan rivojlantirish g'oyasi mavjud. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini biror xalq cholg'u ijrochiligiga o'rgatish yangilanayotgan musiqa ta'limining negizlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalada bolalar musiqa va san'at maktablari mutaxassislarining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari bilan individual ishlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini biror xalq cholg'usi ijrochiligiga o'rgatish uchun

cholg'ularning xususiyatlari, tuzilishi, sadolanish imkoniyatlari va ijrochilik uslublari bilan to'liq tanishtirish samarali hisoblanadi. Yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlarini qiziqtirish maqsadida umumta'lim maktablarda to'garaklar tashkil etish, iqtidorli ijodkor yoshlar o'rtasida "Yosh ijrochilar" respublika tanlovlarni targ'ib etib kelinmoqda. Shuningdek, asrlar davomida "Ustoz-shogird" an'analari hozirgi davrgacha san'at va madaniyat sohasini yuksak darajada yuqori mavqega olib chiqmoqda. Jumladan, poytaxtimizdagi Ko'ksaroy qarorgohida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvida Xorazamning Urganch tumani 4-sinf o'quvchisi Reimboyev Otamurod jonli ijroda Komiljon Otaniyozov repertuaridan qo'shib kuylab, o'z mahorati va iste'dodi bilan hammaga katta taassurot qoldirdi va yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Otamurodga Prezidentimiz tomonidan alohida e'tirof etilib, avtomobil sovg'a qilindi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, o'z iste'dodini namoyon qilib doimiy yangi repertuarlar olib chiqib kelayotgan R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabidagi o'quvchilar o'z mahoratini namoyon qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytish kerakki, musiqa sohasidagi ijodkor yoshlarning istiqbollari keng va umidbaxshdir. Ularning bilim va iste'dodini qo'llab-quvvatlash, milliy musiqa merosini chuqur o'rganish va zamonaviy ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish orqali kelajakda yuksak darajadagi san'atkorlar yetishib chiqadi. Bu esa milliy madaniyatimizning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy an'analimiz "Ustoz – shogird" an'analari davomiyligi, san'atdagi avlodlar uyg'unligi, milliy cholg'u ijrochiligi hamda "Avlodlar uchrashuvi" nomli ijodiy kechalar yoshlarga musiqiy lahzalarni tuhfa etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti-2018
2. Karimova S. A. O'zbek xalq cholg'ularining o'rni va ahamiyati. Toshkent Davlat San'at Instituti nashriyoti-2017
3. Lutfullayev A. Yangilanayotgan musiqa ta'limi//Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal-2026.B-67.
4. Rustamov M. R. Xalq cholg'ularining zamonaviy musiqadagi integratsiyasi. Madaniyat va san'at tadqiqotlari jurnali-2019.B-14.
5. UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage. Retrieved from: unesco.org-2003.
6. Shermatov A. N. O'zbek musiqa san'ati: an'analar va zamonaviylik. Toshkent: Yangi asr avlodi-2019.